

**O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
OTORINOLARINGOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA
TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Otorinolariningologiyada hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Otorinolariningologiyada hamshiralik ishi

1. Quloq shikastlari va kasalliklari, tekshiruv usullari.
2. Quloq kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda hamshiralik ishi.
3. Tashqi burun kasalliklari. Burun va uning yondosh bo‘shliqlari kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda hamshiralik ishi.
4. Halqum kasalliklari. Halqum kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda hamshiralik ishi.
5. Hiqildoq kasalliklari. Hiqildoq kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda hamshiralik ishi

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Quloq shikastlari va kasalliklari, tekshiruv usullari	Quloqning tuzilishi va vazifalari: tashqi, o'rta va ichki quloq tizimi, eshituv va vestibulyar analizatorlarining fiziologiyasini, quloqni tekshirish usullarida ishlatiladigan zamonaviy asbob-uskunalar bilan tanishtirish (audiometr, impedantometr, otoakustik emissiya). Ichki quloq kasalliklari: labirintit, Koxlear neyrit, mener kasalligi, otoskleroz kasalliklarining sabablari, klinik belgilari va davolash usullarini, bemorni operatsiyaga tayyorlash, operatsiyadan oldingi va keyingi parvarishni, gipertoniya va talvasa sindromida tez yordam berishni bilish.	22,5 %	9 ta
2	Quloq kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik ishi.	Yallig'lanish kasalliklari: saramas, perixondrit, ekzema, tashqi eshituv yo'li chipqoni, otomikozlar sabablari, klinik belgilari, tekshirish usullari va davolashni bilish. Eshitish qobiliyatini tekshirishni, muvozanat vazifalarini tekshirishni, eshituv nayi ventilyatsiyasini tekshirishni, yallig'lanish kasalliklari: saramas, perixondrit, ekzema, tashqi eshituv yo'li chipqoni, otomikozlar sabablari, klinik belgilari, tekshirish usullari va davolashni biladi. Quloqni tekshirish usullari: ko'zdan kechirish, paypaslab ko'rish, otoskopiyan, quloqdan bakteriologik tekshiruv uchun surtma olishni, tashqi eshituv yo'lini tozalashni, quloqqa suyuq dori tomizish, malham surtish, kukun purkashni, eshituv yo'lga turunda qo'yish, quloqqa isituvchi kompress qo'yish ko'nikmalarini bilishi lozim.	25 %	10 ta
3	Tashqi burun kasalliklari. Burun va uning yondosh bo'shliqlari kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik ishi.	Tashqi burun kasalliklari: burun saramasi, chipqoni, sikozi, ekzemas sabablari, klinik belgilari, tekshirish usullari, davolash va hamshiralik parvarishini bilishi. Burun bo'shlig'i kasalliklari: o'tkir va surunkali rinitlar, vazomotor rinit, ozena, burun to'sig'ining qiyshayishi, rinolitlar sabablari, klinik belgilari, tekshirish usullari, davolash va	32,5 %	13 ta

		hamshiralik parvarish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Burunga yot jismlar tushganda, burun jarohatlarida, burundan qon ketishida shoshilinch yordam ko'rsatish va hamshiralik parvarishini biliishi lozim. Burunni tekshirish usullari: rinoskopiya turlari, nafas olish, hid bilish faoliyatini aniqlash, diafanoskopiya o'tkazishni, burun bo'shlig'ini yuvish, tozalashni, burunga suyuq dorilar tomizishni, burun va uning yondosh bo'shliqlarining tuzilishi va vazifalari biladi, burun yondosh bo'shliqlari kasalliklarining ko'z sohasi va kalla suyagi ichida yuz beradigan asoratlarni oldini olish va parvarishlashni biladi. Tekshirish usullari (vizual, palpatsiya, rinoskopiya, barmoq bilan tekshirish, burunni hid bilish, nafas olish, himoya funksiyalarini tekshirish) bilan tanishish va bemorlarni tekshirishga tayyorlashni biladi, burunni yondosh bo'shlig'i kasalliklarida bemorni operatsiyaga tayyorlashni, bemorlari operatsiya qilish uchun kerakli asbob-anjomlarni tayyorlashni, bemorni transportirovka qilishni, operatsiyadan oldingi va keyingi parvarishni bilishi lozim.		
4	Halqum kasalliklari. Halqum kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik ishi.	Halqumning anatomik tuzilishi va vazifalarini biladi, burun-halqum kasalliklari: tanglay murtaklarining yallig'lanishi –anginalar, surunkali tonzillitlar haqida ma'lumotlarni bilish. Halqumni tekshirish usullarini, tomoq sohasini ko'zdan kechirish, periferik limfa tugunlarini paypaslashni, tomoqdan bakteriologik tekshiruv uchun surtma olishni bilish. Bemorlarni halqum kasalliklari operatsiyalariga tayyorlashni, bemorlarni tonsillektomiya va adenotomiya qilish uchun jihozlarni tayyorlashni, bemorni operatsiyadan oldin va keyingi parvarishini, burun-halqum kasalliklari: burun-halqum murtaklarining gipertrofiyasi – adenoidlar, o'tkir va surunkali faringitlar, burun-halqum o'smalari kasalliklarining sabablari, klinik belgilari, tekshirish usullari, davolashni, zamonaviy dori vositalarini qo'llash	5 %	2 ta

		usullari, fizioterapevtik muolajalar (magnit lazer va ultrabinafsha nurlar bilan davolash). Og‘ir yotgan bemorlarni og‘iz bo‘shlig‘ini parvarishlash (chayish)ni, tomoq sohasiga dorilarni qo‘llashni, muolajalar bajarish uchun steril stolni, asboblarni va dori vositalarini tayyorlashni, difteriyaga qarshi zardob yuborishni, 58 –U shaklni to‘ldirishni bilishi lozim.		
5	Hiqildoq kasalliklari. Hiqildoq kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda hamshiralik ishi	Hiqildoqning tuzilishi va vazifalari biladi. O‘tkir kataral laringit, burmalar osti laringiti (soxta bug‘ma), hiqildoq difteriyasi (chin bo‘g‘ma), hiqildoqning o‘tkir va surunkali teniozlariteniozlari, hiqildoq nerv apparatining kasalliklari, qizilo‘ngachdagi yot jismlar – sabablari, klinik belgilari, tekshirish usullari, davolash, shoshilinch yordam ko‘rsatishni bilishi lozim. Zamonaviy dori vositalarini qo‘llash usullari va fizioterapevtik muolajalar o‘tkazishni, hiqildoq kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda hamshiralik ishi tekshirish usullarini, hiqildoq shikastlari va unga yot jismlar tushganda hamshira tomonidan ko‘rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordamni, hiqildoqni tekshirish usullarini bilishi lozim. Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarni bajarish (ingalyatsiya o‘tkazish, oyoqlarni vanna qilish)ni, hiqildoqdan surtma olib biladi, bemorlarni operatsiyaga tayyorlashni, traxeostomik nay bilan yotgan bemorlarga hamshiralik parvarishni, bemorlarni operatsiyadan keyin parvarish qilish xususiyatlarini bilishi lozim.	15 %	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %

3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %
----	------------------------	---	------

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantlarini yechish uchun vaqt me‘yorlari 80 daqiqa belgilangan.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta’limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo‘shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. M.S.Yusupova, G.Y.Nazarova, S.S.Shaimova. Toshkent “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 2002 y.

2. M.S.Yusupova, G.Y.Nazarova, S.S.Shaimova. Toshkent “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 2007 y.

Internet saytlari:

- www.medlook.ruwww.medbok.ru.